

Ushbu to'plamda an'anaviy xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari o'rin olgan. Kitobda xorij va respublikamizdagi oliy va o'rta-maxsus ta'lim muassasalarida faoliyat olib boruvchi professor-o'qituvchilar, tarixchilar, islomshunoslar, dinshunoslar, sharqshunoslar, manbashunoslar, san'at va madaniyat tarixi tadqiqotchilari, shuningdek, yosh ilmiy izlanuvchilar, doktorantlar, magistr va bakalavrlarning ilmiy ishlari asosida yozilgan maqolalar jamlangan.

This book contains the materials of the international scientific and practical conference, that has been instituted as a regular event. It is a collection of papers written on the basis of scientific research by professors, historians, specialists in Islamic and source studies, historians of art and culture, as well as young researchers and doctoral students working in higher and special educational institutions and academic centers in Uzbekistan and abroad.



ISLAMIC CIVILIZATION IN CENTRAL ASIA:
PAST AND PRESENT

MARKAZIY OSIYODA ISLOM SIVILIZATSIYASI:
O'TMISH VA HOZIRGI ZAMON



O'ZBEKISTON XALQARO
ISLOMSHUNOSLIK AKADEMIYASI



RESEARCH CENTRE FOR ISLAMIC
HISTORY, ART AND CULTURE

MARKAZIY OSIYODA ISLOM SIVILIZATSIYASI: O'TMISH VA HOZIRGI ZAMON

VI XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA
MATERIALLARI TO'PLAMI

ISLAMIC CIVILIZATION IN CENTRAL ASIA: PAST AND PRESENT

PROCEEDINGS OF THE 6th INTERNATIONAL
SCIENTIFIC-PRACTICAL CONFERENCE

MARKAZIY OSIYODA ISLOM SIVILIZATSIYASI: O‘TMISH VA HOZIRGI ZAMON

VI XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA
MATERIALLARI TO‘PLAMI

2025-yil sentabr, Toshkent, O‘zbekiston Respublikasi



PROCEEDINGS OF THE 6th INTERNATIONAL
SCIENTIFIC-PRACTICAL CONFERENCE

ISLAMIC CIVILIZATION IN CENTRAL ASIA: PAST AND PRESENT

September 2025, Tashkent, Republic of Uzbekistan

“O‘zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi”
nashriyot-matbaa birlashmasi
Toshkent – 2025

UO‘K: 28(5-191.2)(093)(06)

KBK: 85.657.317

M 99

“Markaziy Osiyoda islom sivilizatsiyasi: o‘tmish va hozirgi zamon” [Matn]: VI xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to‘plami / tuzuvchilar guruhi. – Toshkent: “O‘zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi” nashriyot-matbaa birlashmasi, 2025. – 476 b.

Proceedings of the 6th International Scientific-Practical Conference “Islamic Civilization in Central Asia: Past and Present” / Foreword by Muzaffar Kamilov and Preface by Mahmud Erol Kılıç. Editor: Jasurbek Abduqodirov. - Tashkent: International Islamic Academy of Uzbekistan, 2025. 476 - p.

Mas’ul muharrirlar/Chief Editors:

Irgash Daminov, Ashirbek Mo‘minov, Ne‘matullo Muhamedov

Tahrir hay’ati/Editorial Board:

**M.E.Kılıç, M.Kamilov, A.Mo‘minov, D.Maxsudov, G‘.Rasulov,
N.Muhamedov, A.Hasanov, S.Agzamxodjayev, A.G‘aniyev, N.Nasrullayev,
T.Xatamov, Sh. Toxtiyev, H.Lutfullayev, O. Tangirov, M.Usmonov, S.G‘aybullayev,
Z.Ziynatullayev, G. Sharipova, G.Ahmadjonova, J.Abduqodirov**

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil 27-dekabrda 490-son buyrug‘iga muvofiq O‘zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasida Islom tarixi, san’ati va madaniyatini tadqiq etish markazi – IRCICA bilan hamkorlikda 2025-yil 16-sentabrda “**Markaziy Osiyoda islom sivilizatsiyasi: o‘tmish va hozirgi zamon**” VI xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasi tashkil qilindi.

Ushbu to‘plamda an’anaviy xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari o‘rin olgan. Unda xorij va respublikamizdagi oliy va o‘rta-maxsus ta’lim muassasalarida faoliyat olib boruvchi professor-o‘qituvchilar, tarixchilar, islomshunoslar, dinshunoslar, sharqshunoslar, manbashunoslar, san’at va madaniyat tarixi tadqiqotchilari, shuningdek, yosh ilmiy izlanuvchilar, doktorantlar, magistr va bakalavrlarning ilmiy ishlari asosida yozilgan maqolalar jamlangan.

To‘plamga kiritilgan maqolalarda keltirilgan sana, raqam, fakt va boshqa ma’lumotlar uchun mualliflar javobgardir.

O‘zbekiston Respublikasi Din ishlari bo‘yicha qo‘mitaning 2025-yil 9-sentabrda 02-07/5654-sonli xulosasi asosida tayyorlandi.

ISBN 978-9910-9309-6-6

© “O‘zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi”
nashriyot-matbaa birlashmasi, 2025

BUXORO VOHASIDA YASHOVCHI MILLATLARNING MILLIY VA DINIY URF-ODAT, AN‘ANALARIDAGI UMUMIYLIK VA O‘ZIGA XOSLIK

COMMONALITY AND UNIQUENESS IN NATIONAL AND RELIGIOUS CUSTOMS AND TRADITIONS OF THE PEOPLES LIVING IN THE BUKHARA OASIS

Nafiddinova Xosiyat Ravshanovna

*Buxoro davlat universiteti dotsenti,
Tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)*

Buxoro qadimdan etnik va diniy bag‘rikenglikning o‘ziga xos hududi bo‘lgan. Hozirgi vaqtda vohada turli etnik guruhlar va diniy jamoalar tinch-totuvlikda yashab kelmoqdalar. Haqiqatan ham, turli etnoslar va dinlarga mansub odamlar o‘rtasidagi aloqa, munosabat, muloqot, bahs-munozara va muzokaralar muhim o‘rin tutishiga e‘tibor qaratish zarur. Chunki millatlararo totuvlik va birdamlikka erishishning asosiy yo‘li milliy va umuminsoniy qadriyatlar ahamiyatini rivojlantirish va mustahkamlashdir.

Buxoro vohasida uzoq tarixiy taraqqiyot davomida turli etnik guruhlar va din vakillari birgalikda yashab kelgan. Jumladan:

O‘zbeklar va tojiklar bu yerda asrlar davomida asosiy etnik guruhlar sifatida yashagan;

Yahudiylar alohida jamoa sifatida Buxoroda o‘zining madaniy merosini yaratgan. Buxoro yahudiylari madaniyati bu hududning muhim qismidir;

Turkman, arab, va boshqa kichik etnik guruhlar ham vohada uzoq zamonlardan beri yashab kelgan.

So‘nggi asrlar tarixida keltirilgan va bizga ma‘lum bo‘lgan faktlarda ham bu kabi faktlar o‘zini namoyon etgan. XIX asr oxirida Buxoro amirligida 27 ta beklik bo‘lib, ma‘muriy jihatdan bekliklar amlolliklardan iborat bo‘lgan. Shuningdek, bekliklar hududida aholi yashaydigan hududlar qishloq, mavze va daha nomlari bilan atalib kelingan⁷⁷⁸.

XX asr boshlariga kelib Buxoro amirligi hududlari Amudaryoning sharqiy sohillaridan, ya‘ni, Rossiya Pomiridan to Xivaning keng davlatlarigacha cho‘zilib boradi. Buxoro shimol tarafdin Qizilqum sahrosi bilan, g‘arb tarafdin Sirdaryo hamda Xo‘qand xonligi bilan, janubda esa Afg‘oniston, Sharqda turkman o‘lkasi hamda Xiva dashti bilan chegaradosh bo‘lganligi qayd etilgan⁷⁷⁹.

Buxoro amirligi aholisi XIX asrning oxirlarida 2 million 153 ming 240 kishi bo‘lib, milliy tarkibida aholining 1,5 mln. kishidan ortiqrog‘ini o‘zbeklar tashkil etgan. Aholi milliy tarkibida ikkinchi o‘rinda tojiklar bo‘lib, ularning umumiy soni 500 ming kishini, shuningdek turkmanlar soni 200 ming kishidan iborat bo‘lgan⁷⁸⁰. Buxoro amirligining janubiy sharqiy bekligi hududlari aholisining katta qismini o‘zbeklar tashkil etib, milliy tarkibi jihatdan o‘zbeklar 50,7 foizni, tojiklar 31,8 foizni, turkmanlar 10 foiz, qoraqalpqlar, qozoqlar va boshqalardan 7,5 foizni tashkil etgan⁷⁸¹.

⁷⁷⁸ Населенные пункты Бухарского эмирата. Отв.ред. Академик АН РУз А.Р.Мухамеджанов.-Ташкент: Университет. 2001.;С 19.

⁷⁷⁹ Холиқова Р. Россия – Бухоро: тарих чоррахасида. – Тошкент: Ўқитувчи, 2005. – 6 133.

⁷⁸⁰ Тўхтаматов Т.Г. Русско-Бухарские отношения в конце XIX- начале XX в с-14; 1969, с.197:

⁷⁸¹ Искандаров Б.И. Восточная Бухара и Памир во второй половине XIX века. Ч.1. – Душанбе, 1962. – С. 355.

Shuningdek, Buxoro amirligi hududida forsiylar, yahudiylar, hindlar, lo‘lilar, afg‘onlar, qoraqalpoqlar, qozoqlar va boshqa millat vakillari ham istiqomat qilishgan⁷⁸².

Uzoq davr mobaynida birgalikda yashash urf odat va kundalik hayot tarzida turli an‘analarning integratsiyasiga sabab bo‘lgan. Jumladan, Buxoro vohasida oilaviy marosimlar ichida bolani beshikka bog‘lash marosimi alohida o‘rin va nufuzga ega. Ushbu oilaviy marosimni tashkil etishda jamoaning o‘rnini alohida ta‘kidlash lozim. Bunda asosan marosim ishtirokchilarining oilani qadriyat sifatida avaylashi ham semantik ahamiyat kasb etadi.

Vohaga xos bo‘lgan qadimgi an‘analardan yana biri bola tug‘ilganidan xabar topgan yahudiylar xonadonga tashrif buyurishgan. U yerda doira chalib, xonadon a‘zolarini ko‘nglini ko‘tarishgan. Bundan xursand bo‘lgan xonadon sohiblari ularni turli sovg‘a, tanga, sochqi va matolar bilan siylashgan.

Yana bir marosim o‘zbek, tojiklar umuman musulmon xalqlar orasidagina emas, yahudiylarda ham nishonlanadigan sunnat to‘yidir. Xatna marosimi Buxoro yahudiylari orasida ham keng nishonlangan. Yahudiylar orasida xatna marosimi bola tug‘ilganining yettinchi kunida ularning diniy ibodatxonasi sinagogada o‘tkazilgan. Buxoro yahudiylari orasida ham marosim juda tantanali nishonlangan. Marosimda duo o‘qiydigan kishini yahudiylar *moyil* deb atashgan. Bu kasb sharafligi bo‘lib, uni egallash uchun bir qancha shartlarni bajarish lozim bo‘lgan.

Vohada keng nishonlanadigan marosimlardan yana biri bu muchal to‘yi hisoblanadi. Muchal to‘yi tojik va o‘zbek xalqlarining qadimiy marosimlaridan biri hisoblanib, marosim asosan vohaning shahar aholisi orasida ko‘p o‘tkaziladi. Demak bundan ko‘rinib turibdiki, muchal to‘yi vohaning tumanlarida odatda, nishonlanmaydi. Ammo Buxoro yahudiylarida ham “Bar Mitsvo” marosimi o‘tkazilib, aynan bizdagi muchal marosimiga to‘g‘ri keladi⁷⁸³. Yahudiylarning bu marosimi sinagogada o‘tkaziladi va o‘zbeklardan farqli ravishda marosimda o‘spirin yigitning boshi va chap qo‘li tirsagining yuqori qismiga “muqaddas taqinchoq” taqib qo‘yiladi. U odatda charmdan tayyorlanadi va “*tiflin*” deb ataladi. Har bir tiflinda bittadan quticha bo‘lib, unda Tavrotdan muqaddas oyatlar yozilgan bo‘ladi. O‘spiringa kim birinchi bo‘lib yahudiy tili ivritni o‘rgatgan bo‘lsa, tiflinni ham o‘sha inson bog‘lagan. Tiflin bog‘lash yahudiylar uchun savobli amal hisoblanib, qizlar va ayollar tiflin bog‘lab yurishmagan.

Tiflin bog‘lash marosimi tugagach, mehmonlar uchun sinagogada katta bazm tashkil qilingan. O‘n ikki yoshga to‘lib muchal yoshiga etgan yigit va qizlarga yahudiylarda “Bat Mitsvo” marosimida bosh-oyoq yangi kiyimlar kiydiriladi.

Shunday bo‘lishiga qaramay Navro‘z bayramida butun voha aholisi iqtisodiy ahvoliga ko‘ra bezanib, yangi kiyimlar kiyishga harakat qilgan. Bu esa bayram va tantanalarda aholi millati va elatidan qat‘iy nazar brlikda xush-xursandligini baham ko‘rganini ko‘rsatadi.

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, Buxoro vohasidagi millatlararo munosabatlar uzoq tarixga ega bo‘lib, bu munosabatlar do‘stlik, o‘zaro boyitish va madaniy almashinuv tamoyillariga asoslangan. Bugungi kunda ushbu munosabatlar barqarorlik va taraqqiyotning muhim omillaridan biri sifatida namoyon bo‘lmoqda.



⁷⁸² Кармышева Х.Б, Очерки этнической истории южных районов Таджикистана и Узбекистана, М: Изд- Наука. 1976. С. 111-112.

⁷⁸³ Niyozov N . Buxoro yahudiylari tarixidan lavhalar.. - B.49.

Z.Aripova. Misr me'morchiligiga Movarounnahr imoratsozlik an'analari ta'siri.....	359
I.G'afurova. Sredazkomstaris faoliyatiga bir nazar.....	361
O.Tangirov. Toshkent "Eski Shahar" qismi tarixining "Toshkent Risolasi"da aks etish.....	364
D.Abduraxmonov. Amir Temur davri arxitekturalari va me'morchiligining o'ziga xos jihatlari.....	366
D.Abduvaxidov. Turkistondagi pravoslav cherkovlari arxitekturalari.....	369
Sh.Miraxmedova. Tasavvuf va axloq ilmining mazmuni va falsafiy talqini Fariduddin Attor va uning "Tazkirat ul-avliyo" asari asosida.....	372
H.Lutfillayev. Ko'hna Xorazm ziyoratgohlari ta'rifi bir asar misolida.....	374
M.Saipova. Ismoil Somoniy maqbarasidagi ezotrik ramzlarda yashiringan falsafa.....	376
M.O'ktamov, E.Fayzullayeva. Registon maydonining tarixiy binolari. bezak san'ati va epigrafika asosida tahlil.....	380
F.Maxmasobirova. The development of architecture in the city of Termez: A harmony of general and local traditions.....	383
M.Kamolova. Rossiya imperiyasi mustamlakachiligi davrida Turkiston general-gubernatorlarining Markaziy Osiyo islom me'moriy obidalari va tarixiy yodgorliklariga bo'lgan munosabati.....	386
Sh.Hamdanova. Kamoliddin Husayn Xorazmiyning Samarqanddagi majmuasi: epigrafika, arxitektura va san'at.....	389
U.Xoshimova. Qo'qon durdonasi peshtoqidagi bezaklarning ramziy tahlili.....	392
Sh.Akbarov. Islom dunyosi madaniy merosi va madaniy ifodalari: xattotlik, musiqa, she'riyat va birdamlik.....	395

IV BO'LIM. MARKAZIY OSIYO XALQLARINING MILLIY VA DINIY URF-ODAT, AN'ANALARIDAGI UMUMIYLIK VA O'ZIGA XOSLIK

M.Хайдаров. Важность взаимосотрудничества духовных управлений мусульман Центральной Азии и Афганистана по изданию фетв: проблемы и пути их решения.....	399
Y.Shukurov. Ma'naviyat va axloqiy qadriyatlar: islom ta'limoti asosida shakllangan ma'naviy-axloqiy me'yorlar va ularning jamiyatdagi o'rni.....	403
X.Nafiddinova. Buxoro vohasida yashovchi millatlarning milliy va diniy urf-odat, an'analardagi umumiylik va o'ziga xoslik.....	406
N.Shohiyeva. Masnaviyda ishq va ayol ifodasi.....	408
Z.Mamazova. Tarbiyaviy jarayon va tarbiya mazmunini modellashtirish.....	412
Sh.Boqonov. O'zbekistondagi qozoqlar moddiy va ma'naviy madaniyati (Jongeldi ovuli misolida).....	415
F.Rashidov. O'zbekistonda bag'rikenglik, millatlar va dinlararo muloqotning tarixi.....	417
R.Urazova. Zardushtiylik an'ana-marosimlari va ularning transformatsiyasi.....	420
J.Abdugodirov. XIV-XV asrlarda Movarounnahrda ziyorat shukhi.....	424
L.Xushnazarova. Markaziy Osiyo xalqlarining milliy va diniy urf-odat, an'analardagi umumiylik va o'ziga xoslik.....	426
X.Abdugahhorova. Tarixga oid terminlarda omonimiyaning ifodalanishi.....	428
Sh.Pulatova. Markaziy Osiyo mutafakkirlari ilmiy-ma'naviy merosining barkamol avlodni shakllantirishdagi beqiyos ro'li.....	431
M.Ergashova. Mahalliy urf-odatlarining islomiy qadriyatlar bilan sintezi: to'y marosimlari va nikoh udumlari.....	434
S.Olimova. Diniy qadriyatlar va ilmiy taraqqiyot: yoshlar tarbiyasidagi muhim jihatlari.....	436